

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasaliş modelları.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili... 90	
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'ning bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремнологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алмишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO'K: 82-311.6

“UCH OG‘AYNI” ROMANIDA “YO‘QOTILGAN AVLOD” TASVIRI

ВЫРАЖЕНИЕ “ПОТЕРЯННОГО ПОКОЛЕНИЯ” В РОМАНЕ “ТРИ ТОВАРИЩА”

THE EXPRESSION OF “LOST GENERATION” IN THE NOVEL “THREE COMRADES”

Olimjonov Sarvarbek Abdusalom o‘g‘li 

Farg‘ona davlat universiteti nemis va fransuz tillari kafedrasida katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada XX asr birinchi yarmida G‘arb adabiyotida vujudga kelgan “yo‘qotilgan avlod” atamasining kelib chiqishi hamda uning badiiy asar qahramonlari sifatida qo‘llanilishi haqida fikr yuritilgan. Erich Mariya Remarkning “Uch og‘ayni” romanida ushbu avlodga mansub bo‘lgan qahramonlar tasviri tahlil qilingan. Muallif ijodi, xususan, “Uch og‘ayni” romanida urushning insoniyatga yetkazgan fojiali oqibatlarini chuqur badiiy ifodasini topgan. “Yo‘qotilgan avlod” timsoli orqali yozuvchi jamiyatdagi ma‘naviy bo‘shliq, maqsadsizlik, yo‘qotilgan orzu va hayotiy qadriyatlar haqida fikr yuritadi. Asardagi qahramonlar kechinmalari o‘zbek adabiyotidagi zamonaviy antiurush ruhida asarlar bilan hamohang ravishda o‘rganilishi mumkin. Bunday adabiy tahlillar bugungi kunda yosh avlodni urushga qarshi ruhda tarbiyalash, tinchlik va insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация

В статье рассматривается происхождение термина “потерянное поколение”, возникшего в западной литературе в первой половине XX века, и его использование в качестве героев художественных произведений. Анализируется образ героев, принадлежащих к этому поколению, в романе Эриха Марии Ремарка “Три товарища”. В творчестве автора, в частности, в романе “Три товарища”, находят глубокое художественное выражение трагические последствия войны для человечества. Через образ “потерянного поколения” писатель размышляет о духовной пустоте, бесцельности, утраченных мечтах и жизненных ценностях в обществе. Переживания героев произведения можно изучать в гармонии с современными антивоенными произведениями в узбекской литературе. Подобные литературные анализы сегодня служат важным источником для воспитания молодого поколения в антивоенном духе и пропаганды идей мира и гуманизма.

Abstract

This article explores the origin of the term “lost generation,” which emerged in Western literature in the first half of the 20th century, and its use in portraying the protagonists of literary works. The depiction of characters belonging to this generation in Erich Maria Remarque’s novel *Three Comrades* is analyzed. In this work, the author gives deep artistic expression to the tragic consequences of war on humanity. Through the image of the “lost generation,” the writer reflects on the spiritual void, aimlessness, lost dreams, and the decline of life values in society. The emotional experiences of the protagonists can also be studied in parallel with modern anti-war works in Uzbek literature. Such literary analyses today serve as important tools for educating the younger generation in an anti-war spirit and promoting the ideas of peace and humanism.

Kalit so‘zlar: yo‘qotilgan avlod, G‘arb adabiyoti, nasr, badiiy talqin, realistik tasvir, roviy-qahramon, obraz, portret, peyzaj, kartina, tasviriy vosita.

Ключевые слова: потерянное поколение, западная литература, проза, художественная интерпретация, реалистическое изображение, герой-рассказчик, образ, портрет, пейзаж, живопись, визуальное средство.

Key words: lost generation, Western literature, prose, artistic interpretation, realistic depiction, narrator-hero, image, portrait, landscape, painting, visual medium.

KIRISH

Insoniyat tarixi urushlar tarixi ham hisoblanadi. Rivoyatlarda aytilishicha, Odam Ato va Momo Havvoning farzandlari Qobil va Hobil o‘rtasidagi nizo oqibatida to‘kilgan inson qoni eng birinchi urushning boshlanishi bo‘lgan ekan. Shundan buyon yer yuzida o‘n besh ming atrofida turli shakldagi urush hamda nizolar sodir etilib, ularda qariyb to‘rt milliard odam – hozirgi dunyo aholisining deyarli yarmi halok bo‘lgan. “Afsuski, bu kabi xunrezliklar dunyoning turli nuqtalarida

hanuzgacha davom etmoqda. Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, besh ming yil davomida uning atigi ikki yuz to'qson ikki yili urushsiz o'tgan, ya'ni odamzot har ellik kunning birida urushsiz, jang-u jadalsiz yashagan ekan, xolos"[9,3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Taniqli nemis adibi Erix Mariya Remark asarlari haqida adabiyotshunos J.Boltonning quyidagi fikrlari o'rinlidir: "Remark o'z asarlarida urushni butun bir avlodni ma'nan va jismonan yo'q qiladigan ofat sifatida aks ettirgan. Yozuvchi ularda oddiy askarlarning qahramonliksiz, g'ayrioddiy va dahshatli hayotiga urg'u beradi, ya'ni ularning o'ldirishga bo'lgan urinishlari na vatanparvarlik, na jasorat bilan bog'liq emas, balki shunchaki tirik qolishga – yashashga bo'lgan ehtiyojlari sabab yuzaga kelganligini, bunga esa aynan ular sabab bo'lmagan urush majbur etganligini ifodalaydi"[1,76]. Muallif o'z asarlarida urushning insonlarga yetkazgan ham jismoniy, ham ruhiy jarohatlarini yoritish orqali bu olovni yoqayotgan korchalonlarga o'z qavmini halokatga yetaklab, bu bilan o'zlariga tavqi la'nat olayotganliklari haqida ogohlantiradi. Belarus yozuvchisi, Nobel mukofoti sovrindori Svetlana Alekseyevich "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi" kitobi haqida sensor bilan bo'lib o'tgan suhbatdagi "Bunday kitoblardan keyin kim urushga boradi? Siz ayolni ibtidoiy naturalizm bilan tahqirlyapsiz. Axir u qahramon ayol bo'lsa. Uni yechintirib tashladingiz. Oddiy ayolga, urg'ochiga aylantirib qo'ydingiz. Ular bizda avliyo hisoblanishadi... Bunday fikrlarni qayerdan oldingiz? Yot fikrlar. Ular sovetga begona. Siz qabrda yotgan birodarlarimiz ustidan kulyapsiz. Remarkni obdon o'qiganmisiz deyman... Bizda remarkizm o'tmaydi. Sovet ayoli hayvon emas"[5,27-28] degan so'zlarni keltirarkan xunrezliklarning achchiq haqiqatini xalqdan yashirib, o'z siyosiy safsatalarini o'zgalarga singdirishga urinayotganlar ustidan kuladi.

Erix Mariya Remark "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q", "Ortga yo'l", "Uch og'ayni" romanlarida birinchi jahon urushi qatnashchilari – jangchilar kechinmalari orqali har qanday urush insoniyat uchun jinoyat ekanini asoslab beradi. Xalqlar o'rtasidagi do'stlik, hamjihatlik barqaror bo'lmas ekan, insonlar bir-birlarini chohga otadilar, o'zlarining halokatlarini yaqinlashtiradilar. Yozuvchi asarlarida "yo'qotilgan avlod" tasviri Paul Boymer, Ernst Birkxols, Robert Lokamp kechinmalari, mashaqqatli hayoti misolida yoritib beriladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

G'arb adabiyotida "yo'qotilgan avlod" atamasininig kelib chiqishi o'ziga xos qiziq tarixga ega. XX asrning 20-yillarida Parijda muhojirlikda bo'lib, Kanadaning kundalik yangiliklar yoritib boriladigan gazetasi "Toronto Star"ning shu yerdagi muxbiri sifatida faoliyat yuritgan, asli amerikalik yozuvchi Ernest Xeminguey bu yerda maxsus "san'at saloni"ni tashkil etib, Pablo Pikasso, Anri Matiss, Xuan Grin, Frensis Skott Fitsjerald, Shervud Anderson kabi san'at va adabiyot namoyandalarini bir yerda jamlagan amerikalik yozuvchi, noshir hamda kolleksioner Gertruda Steyn bilan qo'shni bo'lib yashagan. U bilan qalin do'stona munosabatda bo'lgan. U ham mazkur "salon"ning a'zosi hamda xonimning doimiy suhbatdoshiga aylangan. Eski "ford" rusumli avtomobilining o't oldirish tizimidagi nosozlikni ta'mirlatmoqchi bo'lgan Steyn xonim boshliqqa bu ishni uddalay olmagan yosh, birinchi jahon urushida qatnashgan ustaxona ishchisi ustidan shikoyat qilgan. Shunda ustaxona egasi o'sha ishchiga qarata fransuz tilida "Sizlarning barchangiz yo'qotilgan avlodsizlar" degan.

"– Mana sizlar kimsiz. Barchangiz xuddi shundaysiz – dedi Steyn xonim. – Urushda qatnashgan yoshlar, barchangiz xuddi ustaxona egasi aytganidek yo'qotilgan avlodsizlar"[2,18]. Gertruda Steyn tomonidan birinchi jahon urushida qatnashgan Jon Dos Passos, Frensis Skott Fitsjerald, Ernest Xeminguey kabi yosh yozuvchilarga nisbatan berilgan mazkur aniq va ixcham ta'rif XX asrning o'ttizinchi yillariga kelib urushning og'ir asoratlari sabab o'zligi, maqsadi, orzulari, umidlari barbod bo'lgan asar qahramonlariga nisbatan qo'llanadigan atama sifatida Yevropa adabiyotida mustahkam o'rin egallagan. Yuqorida "yo'qotilgan avlod" sifatida ta'rif berilgan yozuvchilar qatoriga Birinchi jahon urushida bevosita qatnashgan va urush qoldirgan barcha asoratlarning guvohi bo'lgan Erix Mariya Remarkni ham qo'shish o'rinlidir. Urushining bor dahshati, jamiyatga ko'rsatgan ayanchli ta'siri, ommaviy tushkunlikni o'z qahramonlarining taqdiri misolida mohirona aks ettirgan yozuvchi ham "yo'qotilgan avlod" vakillari qiyofasini o'z asarlarida mahorat bilan aks ettirgan.

Insonlar qiyofa va xarakterlari qanchalik xilma-xil hamda betakror bo'lsa, ijodkorlar uslubi ham shunchalik rang-barangdir. K.Paustovski yozganidek, "Ijod jarayoni – uzluksiz va ko'p

ADABIYOTSHUNOSLIK

qirralidir. Qancha yozuvchi bo'lsa, shuncha ko'rish, eshita bilish, tanlash yo'sini va oxir-oqibat shuncha ishlash uslubi mavjuddir"[8,159]. Erix Mariya Remarkning "Uch og'ayni" romani bilan tanishar ekanmiz, ushbu so'zlarning nechog'lik to'g'ri ekanligiga amin bo'lamiz. Yozuvchining dolzarb voqelikni ko'rish, tanlash mahoratidagi o'ziga xoslikni asar sahifalari bilan tanishish jarayonida his eta boramiz.

"Uch og'ayni" romani bosh qahramoni Robert Lokamp o'ttiz yoshda. U o'n sakkiz yoshida harbiyga chaqirilgan. Shu yoshda birinchi jahon urushining barcha dahshatlarini boshdan kechirgan. Ma'lumki, "Realistik asarda aniqlik realistik til orqali yaratiladi va kuchayadi, adabiyotni so'z san'ati deb atashlarining sababi ana shunda"[10,192]. Asar voqealari, yuqorida tilga olinganidek, roviy-qahramon Robert Lokamp tomonidan bayon qilinadi. D.Morev yozganidek "E.M.Remark ijodining muhim belgisi "yo'qotilgan avlod" asosiy vakilining hayotdagi keskin burilish jarayonlarini bir qahramon orqali izchillik bilan tasvirlashdir"[7,9]. Roman bosh qahramonida ham xuddi shu jihatni ko'rish mumkin. Voqealar esa 1928-yilda bo'lib o'tadi. Robert Lokamp o'ttiz yoshga to'lgan kuni bosib o'tgan hayot yo'liga nazar tashlaydi. Yozuvchi Robert Lokamp obrazi talqinini haqqoniy, hayotiy bo'lishiga katta ahamiyat beradi. Robert o'z kundaliklariga haqiqiy hayoti 1916-yilda – askarlikka chaqirilganidan keyin boshlanganini, so'ngra 1917-1918-yillarda urushda bo'lishi, quoldosh do'stlarining inglizlar tomonidan qattiq o'qqa tutilib, gaz bilan zaharlanib halok bo'lganlari, bir qanchasining esa bir umrga nogiron bo'lib qolganliklarini muhrlaydi. Ushbu tasvir orqali urushning jamiki kulfatlari, fojiasi bor bo'y-basti bilan ifodalanadi. Robert urushdan so'ng tirikchilikning barcha qiyinchiliklarini boshdan kechiradi. Bu uning kundaliklarida shunday aks etadi: "1921. Eslashga urinyapman-u, eslolmayapman. Bu yil xayolimdan butkul ko'tarilipti. 1922-yil Tyuringiyada yo'l qurilishida ishladim. 1923-yili esa rezina buyumlar fabrikasida reklama bilan shug'ullandim. Pul qadrsizlanayotgan paytlar edi. Oyiga ikki yuz milliard marka olardim. Pulni kuniga ikki marta berishardi, har gal maoshni olgandan so'ng yarim soat tanaffus qilib, do'konga yugurardik, chunki dollarning quvvati o'zgarmasdan burun u-bu narsa harid qilishga ulgurish kerak edi. Kechga borib pul ikki barobar qadrsizlanib qoldi"[3,7]. Pulning qadrsizlanishi xalqning tabaqalanishiga, quyi qatlamning esa iqtisodiy ahvolini yanada og'irlashishiga olib keladi.

Fojialar insonni erta qaritishi Lokampning Kesterga bergan javobida ko'rinadi. Urush ularni vaqtning o'tishiga ham befarq qilib qo'ygan. Kesterning tug'ilgan kuniga ishora qilib "O'ttiz yoshiga o'xshayapsanmi, yo'qmi?" degan savoliga u "E, gapirma. Ham o'n olti, ham ellikka kirganga o'xshayman", deya javob beradi. Kester esa: "– Zo'r-ku! Bundan ortiq yana nima kerak? Demak, sen vaqtni tizginlab, ikki umrni kechirayotgan ekansan"[3,17] deydi. Asarda tasvirlangan barcha qahramonlar va personajlar taqdiri bilan bog'liq voqealar urushni qoralash g'oyasi uchun xizmat qildirilgan. Urush va uning avlodlar hayotida qoldirgan fojiasi butun asar davomida "qizil ip" bo'lib o'tgan.

Yozuvchi asar syujetining ekspozitsiyasida keltirilgan peyzaj ifodasi, shahar va ustaxona manzarasi orqali otayotgan tongni, boshlanayotgan yangi kunni tasvirlaydi. Bunda voqea qahramon tilidan bayon etiladi. Shu yo'l bilan uning ruhiyatidagi ijobiy fazilatlar, jumladan tong otishi orqali go'zallikni his etishi, ish joyiga erta kelib zarur vazifalarni bajarishi bilan mehnatsevarligi, ovozga diqqat qilishi orqali esa hushyorligini ifodalaydi.

Lokamp va uning atrofidagi "kichkina odamlar"ning barchasi og'ir turmush tarzi natijasida shu kuyga tushganlar. Yozuvchi og'ir hayot manzaralarini shu xilma-xil taqdirdagi odamlar tasviri orqali aks ettirishga erishadi. Shu qatlamning bir a'zosi sifatida Lokampning ular orasida o'ziga xos obro'si bor. U stol atrofida o'tirgan "qadimiy kasb zahmatkashlari"ga bir qur nazar tashlaydi. Uningcha, bu muhabbat sipohiyarlari kerakli nishondagi odamlarga bexato qarmoq otishadi. Ular orasida yaqindagina tunda mashinaga o'tirib shahar aylanayotgan payt oppoq mo'ynadan qilingan yoqasini o'g'irlatib qo'ygan sohibjamol Valli, bitta oyog'i yo'q, lekin hozircha ovi baroridan kelib turgan Lina, maymoqlanib yuradigan Aloisni yaxshi ko'radigan jizzaki Fritssi, doim mehmonxona xodimlari uchun mo'ljallangan kiyimlarni kiyib olib, badavlat kishilarni ilintirib yuradigan, yuzlari anordek Margo, ichlarida eng yoshi va hozircha ko'p narsani farqlay olmaydigan Marion, yoshi o'tib, oyoqlarining boldir tomirlari bo'rtib chiqib qolgan, shu sabab "ov"ga chiqishga qiynaladigan Mimi, hatto har doim ayollar kiyimini kiyib olib, labiga bo'yoq, yuziga upa surtib yuradigan Kiki ismli erkak ham bor. Barchasining suyangan tog'i, maslahatgo'y va sirdoshi esa Nikolayshtasse ko'chasining muyilishida tayyor yeguliklar sotib o'tiradigan, pullarni maydalab beradigan "onaxon".

Romanning asosiy voqeasi Robert va Patritsiyaning samimiy va beg'ubor sevgisi. Professor H.Taylor fikricha: "Bu Remark yozgan eng yaxshi sevgi hikoyasi. Uning boshqa romanlarida ham ta'sirchan tasvirlangan sevgi hikoyalari bor, ammo ularning hech birida muhabbat bunday shiddat va haqqoniylikni aks ettirmaydi"[4,105]. Ular o'zlarining nozik his-tuyg'ularini, muhabbatlarini bir-birlariga darhol izhor qilishdan tiyiladilar. Sevgilarini imo-ishoralar, turli xatti-harakatlar, oddiy murojaatlar orqali ifodalaydilar. Patritsiya kasalligini Robertga bildirmaydi. Robertdan o'z kasalligini yashirishga imkon topolmagach esa azoblanayotganini bildirmaslikka, havotirga qo'ymaslikka intiladi.

Robert Patritsiya bilan muzeyga boradi. Muzeyda bemaqsad aylanib yurgan odamlarni kuzatar ekan, u yerda o'zini ruhan singan, lekin taslim bo'lishni istamayotgan insonlarning ayovsiz va ayni dam unsiz janglarida ishtirok etayotgan askardek sezadi. Uning nazdida hayot bu kishilarning kasb-korini tortib olib, tirikchiligidan mahrum qilgan, o'zlarini esa bir chetga uloqtirib tashlagan, bechoralar nimaga intilgan bo'lsa, hammasidan judo qilgan. Shu sababli ular tushkunlikka tushib, tirik murdaga aylanib qolmaslik uchun ham san'at asarlari bilan inson qalbiga iliqlik baxsh eta oladigan mazkur manzildan panohtopishgan. Jilla qursa bir necha soatga bo'lsa-da azob-uqubatlaridan, ayanchli qismatlari haqidagi o'y-xayollardan qutulish uchun bu yerga kelishadi. Qimtinib, oyoqlarini zo'rg'a sudrab, turli eksponatlar orasida bemaqsad kezib yurgan kishilarning ahvoli Robert larzaga solidi: "Ming yillar davomida odamzot nimaga erishdi-yu, nimaga erisholmadi – buni faqat mana shu yerda yaqqol anglash mumkin: insoniyat o'lmas san'at obidalarini yaratdi, ammo o'z qavmiga daxldor kimsalarning har birini loqal nonga to'yg'azishga qurbi yetmadi"[3,357]. Shu bilan birga urushlar tufayli insoniyat o'z tafakkurining yuksak xosilasi bo'lgan san'at asarlari, obidalarni yer bilan yakson ham qildi. Ijtimoiy tengsizlik, hukmron tabaqaning noinsofligi yuqoridagi holatni yuzaga chiqaradi.

Lokamp xarakteriga xos qat'iyat Patritsiyaning uning qo'lini qattiq qisib ko'rishganiga munosabatida ayon bo'ladi: "Qo'limni kutilganidan ko'ra mahkamroq qisgani ma'qul bo'ldi. Kafti o'lgan baliqning qorniday ilvillagan odamlarni jinimdan battar yomon ko'raman"[3,78]. Bu o'z navbatida Lokamp xarakteriga xos bukilmas irodani ham ko'rsatadi.

Ilya Erenburg "Roman oddiygina yozib qo'yish bilan yaratilmaydi, har doim u bilan yashash zarur bo'ladi"[8,366] deya yozadi. Erix Mariya Remark ham Robert Lokamp obrazini yaratishda ana shunday jarayonni boshidan kechirdi. Lokampda o'z hissiyotlarini jilovlay bilishdek iroda mavjud. Bu ko'pchilikka nasib etmagan, madaniyati yuqorilik belgisi. Masalan frau Zalevskining pansionatida Lokamp bilan birga qo'shni xonada yashaydigan Erna Benig "– Azizim, ... har bir insonda ma'lum darajada hissiyot bor. Bu hissiyot kutilmaganda qalqib chiqadi". Lokamp esa ana shu "kutilmaganda qalqib chiqadigan" hissiyotlardan o'zini jilovlay olgan. Shu bois ham u Patritsiyaning muhabbatiga sazovor bo'ladi.

Lokampning Patritsiyaga bo'lgan cheksiz muhabbati uning kasalligi og'ir, o'lishi aniq ekani ma'lum bo'lgach, yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Patritsiya Robertga "Azizim" deb murojaat qilsa, Robert unga "Mening suyukli, dovyurak do'stingnam" deya murojaat etadi. Robert fikricha, "Ayol kishi erkakka sevgi izhor etmasligi kerak. Bu haqida uning chaqna b turgan baxtiyor ko'zlari gapirsin. Ko'z iqrori har qanday so'zdan afzalroq"[3,318]. Shu bois ham Robert Patritsiyaning o'limi oldida ko'nglini ko'tarishga, hayotining so'ngi daqiqalarini baxtiyor o'tkazishga intiladi. Robert o'zining hayot, umrning mazmuni, baxt haqidagi fikrlarini professor Jaffe bilan uchrashuvining barcha tafsilotini eslagan holda, ochiq turgan derazadan xonaga kirayotgan kechki shabada ta'sirida qimir etmay o'tirilib o'zicha izohlaydi: "Patga qarab turib, yuragim tubiga cho'kkan anduh allaqanday umid bilan qorishib, butun vujudimni qaytadan zabt etayotganini, qayg'u, ishonch, shamol, oqshom va charog'on ko'zguda aksi namoyon bo'lib turgan suluv qiz – bari ayqash-uyqash bo'lib ketayotganini ravshan his etardim; ehtimol hayot, chinakam hayot va baxt shudir, balki g'am-g'ussa, qo'rquv va unsiz iqror omuxta bo'lgan muhabbat mana shuning o'zidir..."[3,320] Lokamp o'z boshiga kelayotgan kulfatni mardonavor kutib oladi.

Robert "Nima uchun Patritsiya o'lishi kerak?" deya taqdirga, adolasiz qismatga qarshi isyonini bildiradi. Shunda professor Jaffe kasalxonadagi turli-tuman bemorlarni unga ko'rsatadi. O'zining ham xotini arzimagan gripp bilan og'rib vafot etganini so'zlab beradi. Ayniqsa, sanatoriyada o'n sakkiz yoshli go'zal ispan qizi Ritaning to'satdan vafot etishi Robertning yodiga hayotda hamma narsa bo'lishi mumkinligini soladi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Yozuvchining mahorati shundaki, qahramonlarni oddiy soʻzlatish, tafakkur qildirish vositasida oʻlimining muqarrarligini anglagan Patriitsiya kechinmalariga taʼsirchanlik bagʻishlaydi. Lokampdagi buyuk muhabbatni balanparvoz ifodalardan holi tarzda koʻrsatishga erishadi.

Robert Patriitsiyaga termular ekan, koʻzlarining yanada kattalashib ketganini koʻradi: “ – Azizim, – shivirladi u.

Nigohiga bardosh berolmadim. Judayam olisdan boshlangan bu nigoh vujudimni teshib oʻtib, qayoqqadir nomaʼlum boʻshliqqa intilardi.

– Doʻstim, gʻoʻldiradim men, – Mening suyakli, dovyurak doʻstginam”[3,509]. Oʻlim oldidagi Patriitsiyaning olisdan boshlanib nomaʼlum boʻshliqqa intilgan nigohi tasviri yozuvchi uzoq kuzatishlarining natijasi sifatida yuzaga kelgan. E.M.Remark front kasalxonasida bunday oʻlim oldi holatlarni koʻp koʻrgan va nigoh detalidan samarali foydalanib tasvir taʼsirchanligi, hayotiyiligi yuzaga keltirgan. Professor B.Karimov “Badiiy asardan yozuvchi tabiatiga xos xususiyatlarni anglash, his etish ijodkor yashagan muhitni, maʼnaviy-ruhiy, eʼtiqodiy dunyoqarashini anglash orqali yuzaga keladi”[6,27] deya yozadi. Darhaqiqat, Erix Mariya Remark qiyofasi, xarakteriga xos jihatlarni Robert Lokamp obrazi orqali koʻrayotgandek boʻlamiz.

Yozuvchi oʻlim oldidagi bemor hamda uning atrofida parvona Robert holatini hayotiy tafsil va oddiy ibora hamda ifodalar, soʻzlar orqali larzakor kechinmalarini yuzaga chiqaradi. Shuningdek, ijodkor asarlarining salmogʻi uning miqdori bilan emas, mazmun-mohiyati bilan oʻlchanadi. Shu bilan birga asarda tasvirlangan voqelikning hayotiyiligi, haqqoniyiligi taʼsirchanlikni oshiruvchi muhim jihatlardir. Ushbu jihatlarda E.M.Remarkning mazkur romanida ham oʻziga xos tarzda mavjuddir.

XULOSA

Xullas E.M.Remarkning “Uch ogʻayni” romani urush va uning oqibatlarini insonlar taqdiriga koʻrsatgan ayanchli taʼsiri realistik ifodasini topganligi hamda ushbu ifodalar bosh qahramon Robert Lokamp tilidan mohirona aks ettirilganligi bilan ahamiyatlidir. Robert Lokamp obraziga xos samimiylilik, toʻgʻrilik, halollik, oqibatlilik, toʻgʻrisoʻzlik, sadoqatlilik, irodalilik fazilatlarini yozuvchi izchillik bilan yoritib, uning oʻzini soʻzlatish orqali qiyofasini keng tasvirlashga muvaffaq boʻladi. Urush tufayli “yoʻqotilgan avlod”ga aylangan Lokamp, uning doʻstlari va atrofidagi “kichkina odamlar”ning ogʻir turmush tarzi tasviri insoniyat uchun doimo fojia boʻlgan urushni qoralash gʻoyasining taʼsirchan ifodasiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Bolton J. Toward a Theory of the Veteran: The Trenches, Trauma, and Technology's "Third" Hero: *Diss. ... Degree of Doctor of Philosophy. – New York, 2015. – 259 p.*
2. *Hemingway E. A Moveable Feast. –New York: Touchstone Books, 1996. – 96 p.*
3. Remark E.M. Uch ogʻayni. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 512 b.
4. Taylor U.H. Erich Maria Remarque. A Literary and Film Biography. – New York: Lang, 1989. – 334 p.
5. Алексиевич С. Урушнинг аёлдан йироқ қиёфаси. – Тошкент: “Oʻzbekiston” НМИУ, 2016. – 384 б.
6. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – 88 б.
7. Морев Д. Берлин как текст в метаромане в. В.Набокова и Э.М.Ремарка. Автореф.дисс. ... кан.фил.наук. – Москва, 2008. – 19 с.
8. О писателском труде. Сборник. – М.: Сов. писатель, 1955. – 380 с.
9. Тарих: истиқлол ва қўзғолонлар. Маълумотнома. – Тошкент: “Oʻzbekiston” НМИУ, 2016. – 256 б.
10. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 512 б.